

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
4 - KURS "G" GURUH TALABASI MIRZAYEVA MARG'UBANING
"Ogahiyning "Ogohnoma" asarida undalmalar" mavzusida yozgan referati

Mavzu: Ogahiyning "Ogohnoma" asarida undalmalar

Reja:

1. Undalma haqida umumiy ma'lumot.
2. Ogahiyning "Ogohnoma" asarida undalmalar.
3. "Ogohnoma"da qo'llangan undalmalarning semantik va stilistik vazifasiga ko'ra guruhlari.

Kirish

"Agar biz O'zbekistonni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni ibrat qilib ko'rsatmog'imiz lozim".¹

Yurtboshimiz Islom Karimovning yuqoridagi fikri nechog'lik hayot haqiqatiga to'g'ri kelishini, bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini halqaro jamoatchilik tan olmoqda va etirof etmoqda. Bu tabarruk zaminda ne-ne buyuk zotlar, olimu-ulomalar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va ma'daniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda to'g'ilib kamolga yetgan ulug' alloma va shoirlarning xizmatlari beqiyos ekani bizga o'lkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan yana biri –bu Ogahiy bobomizdir. Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyliigi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib gapiramiz.

Ogahiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyot va tilimizning tengsiz namayondasi, millatimizning g'ururi, shonu-sharafini dunyoga tarannum qilgan betakror so'z san'atkori.

Undalma- so'zlovchining nutqi qaratilgan, boshqa bir shaxs yoki predmetni ifodalagan so'z yoki so'z birikmasidir.

Undalma bosh kelishikdagi ot yoki ot ma'nosidagi so'zlar orqali ifodalanib, gapning umumiy mazmununu to'ldiradi, gapning kimga qarashli ekanini bildiradi.

Undalma nutqning turli ko'rinishlari, murojaat, shior, buyruq- chaqiriq, e'lonlarda ishlatiladi:

M: Bu fikrni ,o'g'lim, senga aytayapman

Undalma gapning bosh yoki ikkinchi darajali bo'laklar bilan moslashuv, boshqaruv yoki bitishuv aloqasiga kirisha olmaydi. Ammo u gapning ayrim bo'laklari yoki butun gap mazmuniga aloqador bo'lib, gapning zarur qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham u ayrim gap bo'laklari va gapning umumiy mazmuni bilan o'ziga xos grammatik aloqaga kirishadi. Ma'lum bir gapdan undalmaning chiqarilishi yoki hatto o'rnining o'zgartirilishi gapning umumiy mazmuniga ta'sir etadi, muallif aytmoqchi bo'lgan fikr anglashilmay qoladi.²

Undalmaning ajratilgan aniqlovchiga yaqin bo'lgan turida grammatik aloqaga kirishish xususiyati aniq ko'rinadi, chunki undalma ma'lum bir bo'lakning ma'nosini izohlaydi.¹

¹

Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.T., Ma'naviyat. 2008. B-140.

2 O'zbek tili grammatikasi. II tom. 1976.T., Fan. B-260.

M: Bularning hammasi sen, Vatanim-onam.

Misoldagi vatanim-onam undalmasi sen olmoshining ma'nosini izohlaydi, aniqlashtiradi. Shu bilan birga butun gap mazmuni bilan ham aloqadordir.

Undalmalar semantik va stilistik vazifasiga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

1. Nutq qaratilgan ob'ektni ifodalaydi. Nutq qaratilgan ob'ekt uch xil bo'lishi mumkin:

- a) shaxs;
- b) shaxs bo'lmagan jonli predmet;
- v) jonsiz predmet.

2. Undalma orqali ma'lum shaxs, predmetga xarakteristika beriladi, ta'riflanadi. Bu xarakteristika shaxs, predmetning tashqi yoki ichki belgisiga ko'ra bo'ladi.

3. Undalma so'zlovchining holatini ifodalaydi. Bu holat orqali g'azab, nafrat, mazax, kesatish, iltimos, achinish, erkalash, hurmat, shodlik, tabrik, chaqirish, mamnunlik kabi hislar anglashiladi.

M: Hay o't yigit, haligi so'zlaring oltinga arziydi, ammo har kimga so'zlay berma!²

Undalmalar tuzilishiga ko'ra uch xil bo'ladi:

1. Yig'iq undalmalar. Yig'iq undalmalar yolg'iz bir so'zdangina tarkib topadi.

2. Yoyiq undalmalar. Yoyiq undalma o'ziga oid so'zlar bilan kengayib keladi. Undalmaga oid so'zlar aniqlovchilar yoki izohlovchilar sifat, sifatdosh, ot, olmosh so'z turkumlari orqali ifodalanadi.

3. Murakkab undalmalar quyidagicha shaklda bo'ladi:

a) yolg'iz undov so'z bilan yoki undov so'z bilan barobar aniqlovchilar, izohlovchilar bilan birga kelishi mumkin. Bu holda kuchli hayajon ma'nosi ifodalanadi.

b) undalmaning tarkibida aniqlovchi ergash gap bo'lishi yoki ergash gap shaklida bo'lishi mumkin.

M: O'lma, ey, qo'li qand, jafokash bog'bon.

v) undalma takrorlanib kelishi mumkin. Bu hol kuchli his-hayajon ifodalanganda, undalmaga alohida ahamiyat berilganda roy beradi. Undalma takrorlanganda aynan qaytarilishi, aniqlovchi bilan birikib kelishi yoki undalmaning o'rnini mazminan bosuvchi boshqa so'z bilan almashib, qaytarilishi mumkin.

M: Jamila!, Jamila! Bas, tur o'rningdan.

Undalmalarning o'rni. Undalma gapning boshida ham, o'rtasida ham, oxirida ham kela oladi. Undalmaning o'rni uning ma'naviy vazifasiga, stilistik xususiyatiga, tarkibiga, asosiy gapning strukturasiga va mazmuniga ham bog'liq bo'ladi.

Undalmalar hozirgi o'zbek tilida ham, eski o'zbek tilida ham faol qo'llanilgan til hodisasi hisoblanadi. Mazkur ishda undalma haqida hozirgi o'zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan ma'lumot berish bilan birga ushbu til hodisasining eski o'zbek tilidagi jilosiga ham e'tiborni qaratdik. Ayni mavzu tadqiqi uchun asosiy manba sifatida mumtoz adabiyotimizning yirik vakili, Xorazm adabiy muhitining zukko shoiri va davlat arbobi Muhammadrizo Ogahiyning "Ogohnoma" asari tanlandi.

Muhammad Erniyozbek o'g'li Ogahiy 1809-yili Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida mirob oilasida dunyoga keladi. U zotning otasi ham, bobosi ham (Avazbiy mirob) xonlikdagi obro'li mansablardan biri- miroblik xizmatida bo'lib kelgan. Bu xizmat o'z navbatida uning amakisi mashhur shoir, tarixchi va tarjimon Shermuhammadga 1778-1829-yil, so'ng ancha muddat Muhammadrizoga o'tgan. Demak, Ogahiy miroblar sulolasining vakillaridan biridir. Biroq u bu xizmarga ishlagan bo'lsa-da, mol-mulk to'plashga intilmagan, xokisor, kamtarona yashash yo'lini tanlagan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Feruz Xorazmda 47yil hukmdorlik qilgan, ko'p yaxshi ishlarni, ilm, san'at va adabiyotga homoyikligi, talantli shoir, musiqachi bo'lganligi bilan yaxshi nom qoldirgan. Ogahiy "Qobusnoma" tarjimasiga yozgan so'z boshida "Ul saltanat burjining muallo axtari... Saidmuhammad Rahim Bahodirxon bovuji yigitlik ayyomi va ayshu- ishrat hangomida hech bir lahu la'bga (behuda ish, o'yin- kulgu) moyil bo'lmay, aksar vaqt kitobxonlik va ma'nidonlig' ishiga mashg'ul bo'lib, har turluk kitobni mutolaa qilur erdi va o'zga

mashg'ulotlardin ani a'lo va afzal bilur erdi", deb yozadi. Uning uzoq yillar saltanat boshida turishi, yaxshi ishlarni amalga oshirib, o'zidan yaxshi nom qoldirishida, hech shubhasiz, uning Ogahiy Feruzga atab yozgan bu asari garchand mamlakatning yangi hukmdoriga bag'ishlangan bo'lsa-da, qasida emas. U ikki yuz misralar atrofida, har bayti masnaviy yo'li bilan qofiyalangan asardir. Ba'zi manbalarda u Feruzga bag'ishlanganligi, kirishda ta'rif va maqtovlarning keltirilganligi sababli qasida janri namunasi sifatida tilga olinadi. Munis va Ogahiy haqida risola, maqolalar yozgan Nusratullo Jumaxo'ja bu asarni "Ogohnoma" deb ham atagan. Chunki, asar qisman madh ruhi bilan yo'g'rilgan, tarixiy shaxsga qaratilgan masnaviy namunasi. Qasidada Xorazm hukmdorlari, mamlakatda sodir bo'lib turgan ayrim voqealar, bahor, navro'z shodiyonalari ta'rif-tavsif etiladi. Ogahiyning Muhammad Rahim Feruz maqtovida yozgan qasida va qasidasimon she'rlari, tarixlari ancha. Uning mashhur "Qasidai nasihat" yoki "Ogohnoma" masnaviysi ham o'z xususiyatlariga ko'ra, qasidaga yaqin asarlardir. Undalma eski o'zbek tilida ham juda faol til hodisasidir. Undalma tinglovchi va o'quvchilarning diqqatini asosiy fikrga jalb qilish hamda nutq qaratilgan shaxs yoki predmetni xarakterlash uchun yozma nutqda ancha keng qo'llangan.

Qadimgi turkiy tilda undalma, asosan, gap o'rtasi va oxirida qo'llangan:

M: Anar kōrū biliñ, turk amti bōdun bāg'lār, bodkā korigma baglar gū yañiltachısız.(KT)

Undalma undov so'zlar bilan birga kelishi mumkin: Biliglikkā ya dost özüñni ila (HH).

Eski o'zbek tilida ham undalmalar keng qo'llaniladi, umumiy mazmunga ko'ra ilaha, saqiy, yar, janan, dost kabi so'zlar undalma vazifasida keladi.³

Ogahiyning "Ogohnoma" asarida undalmalar bir qancha leksik-semantik, stilistik vazifa bajargan buni asardan olingan quyidagi parchalarda yaqqol ko'rish mumkin.

Shahanshahiq o'lsun muborak sango,

Madadkor Tangri muborak sango.(152b)⁴

Bu baytda undalmaning yoyiq turi qo'llangan bo'lib, shaxsga nisbatan murojaat etilgandir, ya'ni bunda Muhammad Rahim Feruzga murojaat etilgan.

Zamiringni sabr aylabon shod tut,

Bori kulfat-u g'amdin ozod tut.(152b)

Bu baytda ham yoyiq undalma qo'llangan va shaxsga nisbatan murojaat qilingan.

Eshit bu hazin bandadin ma'rifat

Ki, degum necha manfaatlik nukat.(153b)

Bu baytda yoyiq undalma qo'llangan bo'lib, undalma shaxsga nisbatan ishlatilgan.

Ki, to qildi mavjud olamni haq,

Yaratdi bari xayli odamni haq.(153b)

Keltirilgan baytda yoyiq undalma ishtirok etgan bo'lib, Tangriga qaratilgan.

Budur, doyimo charxi zolim ishi,

Ki, zulmidan also qutulmas kishi. (153)

Bu baytda budur, ki yoyiq undalmalari keltirilgan bo'lib, shaxsga nisbatan murojaat qilingan, ya'ni Feruzshohga qaratilgandir.

Qani ul salotini oliymakon

Ki, yer yuziga erdilar hukmron?(153)

Bu baytda ki yoyiq undalmasi qo'llanilgan bo'lib, bu undalma shaxsga nisbatan qaratilgan.

Bugun, podshoho, sanga saltanat,

Berubdur Xudo ko'guzub marhamat.(153b)

Keltirilgan baytda podshoho undalmasi keltirilgan bo'lib, bu undalma shxsga qaratilgandir.

Ki, himmat biridur, shijoat biri,

³ Abdurahmonov G'., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. T., 2008.B-382.

⁴ Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J., 9-sinf O'zbek adabiyoti. T., 2006.

Adolat biridur, siyosat biri.(154b)

Bu baytda undalma joylashishiga ko'ra misra boshida joylashgan, yoyiq undalma, undalma jonsiz predmetga nisbatan qaratilgan.

Shoho, olam ichra bugun shohsen,

Burundin bu so'zlarga ogohsen.(154b)

Keltirilgan misrada undalma misra boshida joylashgan bo'lib, yoyiq undalmadir. Bu undalma shoho, shaxsga nisbatan qo'llangan.

Umidim budurkim, amal qilg'aysen,

Amal aylamakda jadal qilg'aysen.(154b)

Bu baytda ham undalma misra boshida keltirilgan bo'lib, yoyiq undalma, ya'ni umidim budurkim. Bu undalma ham shaxsga qaratilgan.

Biri tarbiyat birla qilmoq azim,

Alarniki, dur nekhohi qadim. (155b)

Keltirilgan baytda ham undalma misra boshida qo'llangan. Bu undalma yoyiq va shaxsganisbatan qo'llangan.

Ato so'gidin bo'lma anduhgin,

Ko'ngulni bu g'am birla qilma hazing. (155b)

Keltirilgan baytda undalmaning murakkab turi qo'llangan bo'lib, bu undalma Tangri taologa nisbatan qo'llangan.

Alar ichra ushbu faqir Ogahing,

Demay Ogahingkim, g'ubori rahing. (155b)

Bu baytda undalma misra boshida qo'llangan. Undalma yoyiq undalma turiga kiradi va shoirning o'ziga, ya'ni shaxsga qaratilgandir.

Eski o'zbek tilida ham undalmalar xuddi hozirgi o'zbek adabiy tilidagidek so'z o'rtasida, so'z boshida va so'z oxirida qo'llangan. Bundan tashqari undalmalarning yig'iq, yoyiq va murakkabligi ham

eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek tiliga o'xshash hodisadir.

Xulosa

Muhammad Rizo Ogahiy o'zbek mumtoz adaboyoti va tilshunosligining Alisher Navoiydan keyingi ulkan siymolaridan biridir. Ogahiy xalqimizning madaniyati, adabiyoti, tili va ilm-fan tarixida iste'dodli shoir, mohir tarjimon, yirik muarrix, ma'rifatparvar shaxs sifatida yorqin iz qoldirgan.

Ogahiy nihoyatda barakali ijod qilgan. Shoirning har bir asarida til hodisalarini kuzatishimiz mumkin. Shunday asarlaridan biri "Ta'viz ul oshiqin" ("Oshiqlar tumori") nomli ulkan devonida qirq mingdan ziyod so'zlarni ko'ramiz. Bu so'zlarning 30% turkiy, ya'ni o'z qatlam bo'lsa, qolgan qismi esa o'zlashgan, ya'ni boshqa tildan kirib kelgan so'zlardir.

Ogahiyning "Ogohnoma" asari tarixiy asar bo'lib, Xorazmda qariyb 60yil ichida sodir bo'lgan voqealarni tarixiy- badiiy solnomasidan iborat. Bu asarlarda shoir, tilshunos va tarjimon Ogahiyning ijodkor, so'z ustasi sifatidagi mahorati o'z izlarini qoldirgan.

1999-yil dekabr oyida, avval aytganimizdek, Ogahiy tavalludining 190 yilligi va 2009 yil 200yilligi keng nishonlandi. Uning buyukligi, ma'naviyatimiz uchun qoldirgan o'lmas merosi to'laligacha namoyon etildi. Biz bu buyuk ajdodlarimiz bilan qancha ko'p faxrlansak, shuncha kamlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T. 2008.
2. Karimov I. Barkamol avlod orzusi. T. 1999.
3. Karimov I. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. 1998.
4. O'zbek tili grammatikasi. T. 1976.
5. Maxmudov N. Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. T. 1991.
6. Abdurahmonov G', Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. T.2008.
7. Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J., 9-sinf O'zbek adabiyoti. T., 2006.
8. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. T. 2006.
9. Abduraxmonov A. Qadimgi turkey til. T. 1972.
10. O'zbek tili va adabiyoti. 2009. 6-son.